



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**O'ZBEK TILINING TARIXIY TAKOMILI VA BUGUNI
HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE UZBEKISTAN LANGUAGE
AND THE PRESENT DAY**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/LZSC7443](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/LZSC7443)

Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich,
filologiya fanlari doktori (DSc),
professor
dr.b.abdushukurov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada turkiy tillar taraqqiyoti, ularning o'ziga xos xususiyatlari, Turkiy tillarning jumladan, o'zbek adabiy tilining so'z boyligi takomillashuvida tashqi manbalar orqali boshqa tillardan kirgan so'zlarning lug'at tarkibidagi o'rni va bugungi kunda o'zlashgan so'zlarning muqobillarini tanlash haqida fikrlar keltirilgan. Ona tilimizning mahalliy va xalqaro miqyosdagi obro'sini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida rivojlantirishdagi sa'y-harakatlar yoritilgan.*

Kalit so'zi: *til, manbalar, taraqqiyot, ichki imkoniyatlar, talaffuz, o'zlashmalar.*

Annotation. *The article presents thoughts on the development of Turkic languages, their specific features, the role of words borrowed from other languages through external sources in the lexicon of Turkic languages, including the Uzbek literary language, in the improvement of vocabulary, and the equivalents of words borrowed today. Efforts to enhance the prestige of our mother tongue at the local and international levels, and to develop it based on national and universal concepts are highlighted.*

Keywords: *language, resources, development, internal capabilities, pronunciation, borrowings.*

Tilning lug'at tarkibi rivoji ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. So'z boyligida davrlar o'tishi bilan ichki va tashqi omillar ta'sirida o'ziga xos o'zgarishlar yuz beradi. O'zlashma leksema biror yangi tushuncha va xabarni anglatrsa, u yoki bu ma'noni tashish xususiyatiga ega bo'lsagina tilga qabul qilinishi mumkin.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili so'z boyligining takomillashuvida tashqi manba, ya'ni boshqa tillardan kirgan so'zlar sezilarli o'rin egallagani, uning lug'at tarkibida sanskrit, sug'd, xitoy, yunon, arab, mo'g'ul, fors-tojik, qadimiy yahudiy, rus va rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar xususida manbalar, kitoblar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy tadqiqotlar hamda lug'atlarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Biroq turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining boshqa xalqlar tili taraqqiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlar u qadar ko'p emas.



Turkiy tilga oid soʻzlarning qardosh boʻlmagan xalqlar tiliga oʻzlashgani, ular rivojiga taʼsiri toʻgʻrisidagi dastlabki maʼlumotni Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida uchramiz. Shu oʻrinda bir necha misollarga murojaat qilsak:

dagʻ – qoramol va boshqalarga bosilgan tamgʻa. Forslar bu soʻzni turklardan olganlar. Chunki forslarda turklardagidek qoramol yoʻq. Shuni ng uchun bu soʻzga ularda zarurat ham boʻlmagan. Men bu soʻzni musulmonlar chegarasida eshitdim [Qoshgʻariy, 1960: 167].

Yalma – paxtali toʻn, forslar buni turkiy xalqlardan olganlar. Arablar esa forslardan olib *yalmaq* shaklida qoʻllaydilar. Arablar *q* ni *h* ga aylantirganlar. Chunonchi: *kandani xandaq, yarani yaraq* qilib olganlar [Qoshgʻariy, 1960: 41].

Bu anʼananing keyingi davrda ham davom etganini Alisher Navoiy ijodi misolida koʻrish mumkin. Buyuk mutafakkir turkiy tilning forsiy tildan qolishmasligini, uning til imkoniyatlari boyligi, bu tilda ham goʻzal adabiyot namunalari yaratish mumkinligini koʻrsatish barobarida turkiy tildan forsiy tilga oʻzlashgan soʻzlarni qayd etib oʻtadi. “Muhokamatul-lugʻatayn”da bu haqda quyidagi jummalarni oʻqiyamiz: *Yana ot anvoidaki, tubuchoq va argʻumoq va yaka va yobu va totu yoʻsunluq - borini turkcha-oʻq ayturlar. ...Yana baʼzi yemaklardin qaymogʻ va qatlama va bulamogʻ va qurut va uloba va mantu va quymogʻ va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va boxsumni va boʻzani dagʻi turkcha ayturlar. Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolgʻonni ham turkcha ayturlar*[Navoiy, 2000: 15].

Tilning rivojlanishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan oʻzaro aloqalarining kengayishiga bogʻliq holda davom etadi. Shu oʻrinda qayd etish joizki, boshqa chet til unsurlarining kirib, oʻzlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Mamlakatlar va xalqlar oʻrtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qoʻshni xalqlarning oʻzaro aloqalari natijasida yangi gʻoyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning oʻziga xos taraqqiy etishiga, til lugʻat tarkibining boyishiga olib keladi. Zero, oʻzaro aloqada boʻlgan xalqlar tillarining bir-birlariga taʼsir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishi, bunday oʻzaro taʼsir leksikada samarali kechishi ayni haqiqatdir. Xalqlarning oʻzaro aloqalari, tillarning bir-biriga taʼsiri turli davr va sharoitlarda oʻziga xos koʻrinishda davom etadi. Bunday oʻzaro taʼsir ayrim davrlarda kuchsiz darajada boʻlsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, baʼzi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda roʻy bersa, uni maʼlum qonun-qoidalar asosida yoʻlga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi. Binobarin, oʻzbek xalqi ham oʻz tarixiy rivojlanishi davomida koʻplab boshqa xalqlar tillari bilan aloqa-munosabatda boʻldi. Shu bois, oʻzbek tili lugʻat tarkibining maʼlum qismini oʻzlashgan soʻzlar tashkil qiladi va ularni tilimizning boyligi sifatida eʼtirof etamiz.

Turkiy tillar guruhiga mansub boʻlmish oʻzbek tili oʻzining koʻp asrlik tarixi davomida bir qancha tillarning taʼsiri ostiga tushdi va oʻz oʻrnini topish yoʻlida ular bilan raqobatlashib keldi. Ilk oʻrta asrlardan X–XII asrlarga qadar mustaqil



ravishda iqtisodiy, diniy, siyosiy, huquqiy terminologiya turkiy til va lahjalar, keyinchalik fors va arab tilining ta'siri ostida murakkab davrni boshdan kechirdi. Buning natijasida tilga ko'plab forsiy va arabiy o'zlashmalar qabul qilindi, shu jumladan, terminologiyada ham fors va arab o'zakli atamalarning katta qatlami shakllandi.

Temuriylar va xonliklar davrida fors tili bilan raqobatda yutib chiqqan o'zbek tili XIX asrning ikkinchi yarmidan rus tiliga to'qnash keldi. Rossiya imperiyasida o'zbek tili hamda Turkistonning boshqa mahalliy tillariga ta'sir ko'rsatish masalasi bo'yicha keskin siyosat yuritilmagan bo'lsa-da, sho'rolar hokimiyatga kelishi bilan vaziyat tubdan o'zgardi. O'zbek tiliga ruscha hamda rus tili vositachiligidagi Yevropa tillariga oid so'z va atamalar singdirila bordi. Qo'yingki, o'tgan asrning 20–30-yillarida ushbu so'zlarni rus tili qonun-qoidalari bo'yicha yozish va talaffuz qilish targ'ib qilindi. Tabiiy yo'llar bilan rivojlanib kelgan boy va qadimiy tilga bunday bosim o'tkazilishi mudhish oqibatlarga olib keldi. Elbek o'sha paytda tilimizga bo'lgan tazyiqlar, ularni qo'llab - quvvatlovchilar xususida shunday yozadi: *...forsining xurofoti bilan o'tgan «zabonshikr»i, istibdod Rusiyasining «ChORT»lari tilimizni bo'g'di, shularg'a qarshi so'zlash nari tursin, balki qo'ldan kelgan cha ko'maklashganlar bo'ldi. Endi bu davrlar o'tgan, har kim o'z tili bilan madaniyat olishg'a haqli, o'z tilini madaniy tillar qatorig'a qo'yishg'a tegish, bunga hech kim to'siq bo'la olmayir* [Jamolxonov, 2017: 208].

O'zbek tilidagi so'zlarga rus tili talaffuz qoidalarining zo'rma-zo'raki joriy etilishi uning fonetik ravonligiga putur yetkazdi, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanilmay turib, o'zlashma so'zlarning ulkan miqdorda o'ylamay-netmay qabul qilinishiga sabab bo'ldi, eng ayanchlisi-jamoatchilikda hamda intelligensiyada har qanday atamalar, zamonaviy baynalmilal so'z va iboralarni rus tilidan to'g'ridan to'g'ri ko'chirish ko'nikmasi shakllandi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llaniladigan so'zlar va atamalar, umuman, terminologiyada jiddiy ziddiyatlar yuzaga keldi. O'zbek tiliga ilm-fan, yurisprudensiya, harbiy soha, siyosat, madaniyat, bank-moliya sohalarida ikkilamchi o'rin ajratildi, rus tilida hujjatlar yuritish, ruscha atamalar qo'llash, muzokaralarni, tadbirlarni rus tilida olib borish me'yorga aylandi. Bu holat, ya'ni ko'r-ko'rona qabul qilishning yomon oqibatlarini o'z vaqtida anglagan Fitrat shunday yozadi: *“Dunyo sahnasida “iyaruv-taqlid”ning ro'lini hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmaganlardir! Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmoqchi bo'lsak, o'zimizning milliy ruhimizga qaramasdan taqlid etamiz. Arablar qaysi bir ulusdan qaysi bir so'zni olg'anda o'z shevalariga ko'ra buzub olg'anlar. Bir arabni o'ldirsangiz (ham) “Petrograd-Petrsburg” demaydir. “Bitrograd-Bitrasburj” deydir. “Fransik” demaydir “afranj” deydir. Shunday qilib, o'z tilining istiqlolini saqlag'an bo'ladir”* [Fitrat, 2006: 9].

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng tilimiz rivojida muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilida ish yuritish, hujjatlar tayyorlash bo'yicha qo'llanmalar yaratildi, mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalariga oid ensiklopediya hamda lug'atlar, darslik, o'quv qo'llanmalar nashr etildi, 2003 yilga



qadar "Atamashunoslik qo'mitasi" faoliyat yuritdi. Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan ushbu qo'mitaning samarali mehnati evaziga *muxtoriyat, ma'muriyat, ma'mur, muqobil, hakam, tashrif, insonparvarlik, xususiy lashtirish, boshboshdoqlik, qoldiq (saldo), iqtisodiyot, ma'lumotnoma, reja, dastur, kengash* singari juda ko'p ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarga doir tushunchalar qaytadan qo'llanishga kiritildi.

Respublikamizning jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, rivojlangan mamlakatlar bilan ilmiy-texnik munosabatlarining jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi, milliylikning kuchayishi nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek, tilda ham o'z ifodasini topmoqda: *akademik litsey, kollej, magistr, bakalavr, tender, preferensiya, investitsiya, litsenziya, diler, megapolis, ekologiya, ekspert, demping, inflyatsiya, kliring, chat, paynet, elektorat, milliy o'zlik, milliy davlatchilik, milliy siyosat, siyosiy islohot, ma'naviy qadriyat, milliy valyuta, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, tadbirkorlar palatasi, konsalting, injiniring, lizing firma, subsidiya, pay, biznes-inkubator* va hokazo.

Bugungi globallashuv asrida fan va texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy voqelik, shuningdek, internet, ijtimoiy tarmoq, televideniya, uyali aloqa vositalari ta'sirida tilmizga ko'plab chet so'zlar kirib kelmoqda. Bu o'z navbatida, mazkur o'zlashmalarni adabiy tilmizga qay tarzda qabul qilish, qo'llash, ularning o'zbekcha muqobillarni topish, shu tariqa, bu kalimlarning tilimizdan mustahkam o'rin olishiga erishish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Abdurauf Fitrat aytmoqchi, har bir tilning boyligi u tildagi so'zlarning ko'pligi (kasrati kalimot), yasalish kengligi (undirish kengligi), bog'lanish imkoniyati (vus'ati ishtiyoq), qoidalarining mukammalligi (mukammaliyati qavoid) bilan o'lchanadi. O'zbek tili bularning har uchasi bo'yicha ham arab va fors tillaridan qolishmasligi, ayrim o'rinlarda ulardan ustun kelishini ta'kidlaydi.

O'zlashmalarning til tizimiga singib ketishi ma'lum sharoit va omillarga bog'liq. Jumladan: so'z uni qabul qilgan tilning amaldagi yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi; fonetik, semantik, grammatik me'yorlariga muvofiq kelishi; o'z yasash tizimida faol qatnashishi; o'zlashma ma'nosi aniqlik kasb etishi; chet so'z uni o'zlashtirgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak. Shu ma'noda, yangi so'z va terminlarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobillarini yaratish hamda bir xilda qo'llanishini ta'minlashda o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim sanaladi. Bunda, birinchi navbatda, quyidagi omillarga ahamiyat qaratishni aqlning o'zi taqozo qiladi:

1) el adabiyoti bo'lgan dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, o'lan va laparlarda aks etgan so'zlarimizga murojaat qilishimiz zarur;

2) ajdodlarimiz qoldirgan buyuk meros - qadimiy bitiglar, badiiy, tarixiy, ilmiy yozma yodgorliklar, tarjima manbalariga suyanish lozim;



3) ko‘hna lug‘atlarda ifodalangan so‘z boyligiga tayanish darkor. Masalan, “Devonu lug‘otit turk”, “Muqaddamat ul-adab”, “Tarjumon”, “Attuhfa”, “Badoyi ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Lug‘ati Navoiy”, “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”, V.Radlov va L.Budagov lug‘atlari va hokazo;

4) jonli xalq tili, so‘zlashuv nutqining qadimiy go‘zal ifodalari, xususiyatlari mujassam bo‘lgan sheva va lahja materiallaridan foydalanish kerak;

5) ichki imkoniyatlar orqali so‘z yasash jarayonini amalga oshirish. Masalan, mustqillik yillarida chet tili terminlarini so‘z yasash usullari (so‘z yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida o‘zbek tili lug‘at fondida *oluvchi* (adresat), *jo‘natuvchi* (adresant), *tavsiyanoma* (xarakteristika), *buyurtma* (zayavka), *narxnoma* (preyskurant), *ma‘lumotnoma* (spravka), *fuqarolik* (poddanstvo), *daxlsizlik* (immunitet), *ishbilarmon* (predprenimatel), *ta‘mirchi* (restavrator) singari ko‘pgina atamalar mustahkam o‘rni topdi;

6) qo‘shni turkiy xalqlar – qozoq, ozarbayjon, qirg‘iz, turk millatlarining bu boradagi tajribalaridan istifoda etish. Ayniqsa, bugun turkiy dunyoda birdamlik ruhi va ishonch muhitini mustahkamlash siyosati kechayotgan bir paytda bu o‘zini oqlaydi.

7) o‘zbekcha muqobili bo‘lmagan o‘zlashmalarni o‘zbek tili fonetik va grammatik xususiyatiga moslashtirish asosida qabul qilish. Ushbu masalada Fitrat domla shunday tavsiya beradi: «Hozirgi so‘zlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir desangiz to‘g‘ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Ularni olurmiz, lekin o‘zimizniki qilurmiz. Turkchallashtiramiz. «Qoida»ning turkchasi yo‘qdir. «Sarf»ningda turkchasini topolmadik. Ikkisin dag‘i olurmiz. Lekin siz kabi «*qovoidi sarfiya*» demasdan, «*sarf qoidalari*» dermiz».

Ko‘rinadiki, tilimizning boyligini chetdan emas, o‘zidan qidirishimiz kerak. Shu ma’noda, qayd etilgan omillar, mavjud tajribalar hamda til qoidalariga tayanagan holda chetdan kirib kelayotgan so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini topish, shakllantirish, mutaxassislar, ziyolilar va ijodkorlar nazaridan bir qur o‘tkazib, so‘ngra keng jamoatchilikka taqdim etish yo‘lidan borishimiz kerak. Shu o‘rinda aytish kerakki, 2024 yildan buyon “Ma’naviy hayot” jurnalining «Tavsiya» ruknida ona tilimizga kirib kelayotgan hamda o‘zlashayotgan yangi so‘zlar haqida mutaxassis va ijodkorlarning fikrlari e‘lon qilinayotgani quvonarlidir. Chunonchi: chat – *so‘zlashuv*, sms – *xabar*, fleshka – *saqlash qurilmasi*, wi-fi (vay-fay) – *simsiz aloqa*, piar – *targ‘ibot* (yoki tashviqot), virtual – *masofaviy aloqa*, yuzer (user) – *ulanuvchi* (foydalanuvchi), fast-food – *bir zumda*, akkaunt – *ijtimoiy sahifa*, keshbek – *qaytim*, kofe breyk – *totli choy*, loqatsiya – *qo‘nim*, hayl – *shovshuv*, turniket – *kirish joyi*, duxovka – *bug‘andir*, link – *havola*, heshteg – *yo‘lchi* (yerchi), chellenj (challenge) – *chaqiruv* (chorlov), parol – *ochqich so‘z* (yoki o‘ron), feyk – *yolg‘on* singari.

Elchilik, albatta, bunday yondashuv maqbul yechim emas, deguvchilar ham topiladi. O‘z davrida tilmizda yot so‘zlar bilan ilmiy istilohlarning turkchalari



yo'qdir degan fikrga Fitrat shunday javob aytadi: *yot so'zlar bilan ilmiy istilohlarning turkchalarini qidirsak, toparmiz, topa olmag'anlarimizni turkcha buyrug'ina yozdira olarmiz. Siz tilimizdag'i yot so'zlar, ilmiy istilohlarni o'zgartmak teyishlig'ini qabul eting, unlarning turkchalari so'ngra topilar. Yo'q, siz bu yo'lda tirishmasangiz, amringiz boshqa yo'l ekan. Buni men bajaraman! Mening tushuncham shudir: turk ulusining ilmiy, ijtimoiy ko'b dardlari, ko'b yuksak o'rinlari bordir. Shul dardlarni bilmamak, shul yuksak turum (o'rin)larni to'ldirmoq qamug' (barcha)larimizga teyishdir*[Fitrat, 2006: 130]. Mazkur mulohazaning isboti o'laroq, Fitrat domla birinchilardan bo'lib o'zlashma istilohlar o'rnida azaldan qo'llanib kelinayotgan o'zbekcha so'zlarni qo'llay boshladi: dalil – *tonuq*, dehqon – *ekinchi*, gunoh – *yoziq*, mehmon – *qo'naq*, hammol – *yukchi*, qalam – *yozg'uch*, namuna – *o'rnak*, foyda – *asig'*, arzon – *ujuz*, shaxobcha – *qo'l*, soya – *ko'laga*, baxil, xassiz – *kishiliksiz*, daraxt – *og'och*, qonuniyatlar – *ingichlar* va boshqalar.

Eng asosiysi, tavsiya etilayotgan yoki muomalaga kiritilayotgan so'zlar nafaqat mutaxassislar, ziyolilar, shu bilan birga, keng jamoatchilik tomonidan e'tirof qilinishi darkor. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Aks holda istiqloqlning dastlabki yillaridagi holat yuz berishi mumkin. Ya'ni o'sha paytlarda *aeroport* so'zi o'rnida *qo'nalg'a*, *tayyoragoh*, *bandargoh* terminlari ishlatila boshlandi, institut atamasi *oliygoh*, *ilmgoh*, *bilimgoh* so'zlari bilan almashtirildi, *jurnal* so'zi o'rnida *oynama*, *majalla*, *jarida*, *oybitik* so'zlarini ishlatish taqdim etildi, *chetpul* (valyuta), *pultopar* (biznes), *hujjatasrov* (arxiv), *nusxakash* (notarius), *naqliyot* (transport), *malakasinov* (attestatsiya) singari terminlar ham yaratildi, amaliyotda qo'llash uchun tavsiya qilindi, lekin yangi tushunchalarning hammasi ham tildan joy olmadi, jaomatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Og'riqli nuqtalarimizdan yana biri shundaki, hozirgi jarayonda adabiy til bilan shevalarimiz o'rtasidagi tafovutlar, xususan, arxaik, tarixiy va etnografik tarixiy so'zlar, dialektizmlarning kamayib borishi kuzatilmoqda. Bugungi keksalarimiz bilgan va qo'llayotgan so'zlar, terminlar hamda iboralarni ularning nevaralari bilmasligi, ishlatmasligi mumkin. Qolaversa, badiiy adabiyotlar, matbuotda qo'llangan dialektizmlarning aksariyati adabiy tilda mustahkam o'rnashib qolmaydi. Davr o'tishi bilan ularning ko'pchiligi adabiy tilda turg'unlashsa, ba'zilar eskirgan, tarixiy so'zlar qatoriga o'tadi yoki shevalarning o'zida ishlatiladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham og'zaki va yozma nutqimizda adabiy tilni boyitadigan sheva so'zlariga ko'proq murojaat qilishimiz, ularni qo'llanish doirasini kengaytirishimiz kerak. Masalan, 20-asr boshlarida *kupe* so'zi o'rnida *bo'lma*, *avans* so'zi o'rnida *bo'nak*, *mardikor* o'rnida *kunlukchi*, *samovar* so'zi o'rnida *o'zi qaynar* atamasi qo'llangan yoki bo'lmasa, professor B.Qosimov "inersiya" so'zi o'rnida "saldam"ni ishlatgan edi.

Ta'kidlash kerakki, ma'lum davrda shevada faol ifodalangan leksemalarning ayrimlari keyinchalik passivlashishi, so'ngra davr talabi bilan yana qayta tiklanib, shevada ham, adabiy tilda ham faol qo'llanadigan so'zlar sirasiga kirishi mumkin. 20-asr boshlarida o'zlashgan *pudrat*, *firma*, *mulkdor*, *kredit* so'zlari 50-60-yillarga



kelib eskirgan soʻzga aylangan. Vaqt oʻtishi bilan mustaqillik yillarida ular faol soʻz sifatida qoʻllana boshladi.

Mutaxassislar va keng jamoatchilikka yaxshi ayonki, yaqinda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi majlisining 62-son bayoni qabul qilindi. Ushbu bayonga koʻra, oʻzbek tilida qoʻllanilib kelayotgan 40 ta xorijiy atama oʻzbekcha muqobillariga almashtirildi. Masalan:

1. **Айсберг** – Muztogʻ – Музтоғ
2. **Внедорожник** – Yoʻltanlamas – Йўлтанламас
3. **Доставка** – Yetkazish – Етказиш
4. **Карвинг** – Oʻymabezak – Ўймабезак
5. **Коридор** – Yoʻlak – Йўлак
6. **Котлован** – Xandaq – Хандақ
7. **Лебёдка** – Chigʻir – Чиғир
8. **Лидер** – Yoʻlboshchi, yetakchi – Йўлбошчи, етакчи
9. **Навигатор** – Yoʻllagich – Йўллағич
10. **Пароль** – Oʻron – Ўрон

11. **Наждак** – Qumqogʻoz – Қумқоғоз va hokazo. Bu yaxshi, albatta. Uni qoʻllab quvvatlash lozim, biroq atamalarning muqobillarini tanlashda ularning tarixiy ildizlariga eʼtibor qaratish zarur. Aks holda, *najdak* singari asli turkiy, oʻzbekcha soʻzlar ham ular qatoridan joy olib qolishi mumkin. “Devonu lugʻotit turk” asarida bu soʻzning **nijdagʻ** shaklini uchratamiz. U “qayraq tosh” maʼnosini bergan [Qoshgʻariy, 2006: 432].

Uzun soʻzning qisqasi, tilni saqlab qolish xalq madaniyati, anʼanalari, urf-odatlarining umrboqiyiligini anglatadi. Chunki til xalqni birlashtiradi, tarbiyalashdi, oʻqitadi, taraqqiyot va kelajak sari yoʻnaltiradi. Shunday ekan, “Devonu lugʻotit turk”da ulugʻlangan, “Muhokamatul lugʻatayn”da sharaflangan ona tilimizning mahalliy va xalqaro miqyosdagi obroʻsini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida rivojlangan tillar qatoriga qoʻshish uchun har birimiz unga hurmat bilan yondashishimiz, Abdulla Avloniy aytmoqchi, “hifzi lison”ni hayotiy shiorimizga aylantirmogʻimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махмуд Қошғарий. Девону луғотит-турк/Гаржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. Т. I. – Тошкент: ФАН, 1960.
2. Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан. 2000.
3. Фитрат. Танланган асарлар. Ж. IV. -Тошкент: Маънавият, 2006.
4. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. К.1. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2017.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774